

KORRUPSIYA JINOYATLARI VA ULARNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI**Karimov Shohjahon Shoyim o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Akademiyasi 1-kurs kursanti.

karimovshohjahon212@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19224554>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya jinoyatlarining mohiyati, ularning jamiyat va davlat boshqaruvi tizimiga salbiy ta'siri hamda huquqiy tartibga solish mexanizmlari tahlil qilinadi. Korrupsiyaning asosiy shakllari — pora olish va berish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlar yoritiladi. Shuningdek, milliy qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan normalar, javobgarlik choralarining turlari va ularning qo'llanish amaliyoti ko'rib chiqiladi. Maqolada korrupsiyaga qarshi samarali kurashishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, pora olish, qonunchilik, jamiyat, davlat boshqaruvi, jinoyat, konstitutsiya, profilaktika, iqtisodiyot, jinoyat kodeksi.

Dolzarbli. Korrupsiya zamonaviy jamiyatda davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiruvchi, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi va ijtimoiy adolat tamoyillarini izdan chiqaruvchi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallasuv sharoitida korrupsiya transmilliy xarakter kasb etib, nafaqat alohida davlatlar, balki butun mintaqalar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Qonun asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ushbu jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va samarali jazolash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ekanligini belgilaydi.

Shuningdek, korrupsiya fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini kamaytiradi, investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda huquq ustuvorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Shu sababli korrupsiya jinoyatlari va ularning huquqiy tartibga solinishini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Korrupsiya — davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va jamiyat rivojiga jiddiy to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-huquqiy muammo hisoblanadi. U davlat organlari faoliyatining shaffofligini pasaytiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklariga putur yetkazadi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini buzadi.

Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Korrupsiya jinoyatlarining mohiyati va turlari:

Korrupsiya jinoyatlari — mansabdor shaxslarning o'z xizmat mavqeidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishi bilan bog'liq huquqbuzarliklardir.

Bunday jinoyatlarga pora olish, pora berish, vositachilik qilish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, xizmat soxtakorligi va manfaatlar to'qnashuvi kiradi. Ushbu jinoyatlar odatda yashirin shaklda sodir etiladi va ularni aniqlash murakkab hisoblanadi.

Huquqiy tartibga solish asoslari:

Korrupsiya jinoyatlari milliy qonunchilik doirasida, xususan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Qonun orqali tartibga solinadi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning aniq tarkibini belgilab, ular uchun jinoiy javobgarlik choralari nazarda tutadi.

Jinoyat kodeksida pora olish va berish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish kabi jinoyatlar uchun jarima, muayyan huquqlardan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum etish jazolari belgilangan. Bu esa korrupsiyaning oldini olish va jazolashda muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari:

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash bilan cheklanmaydi. U profilaktika, nazorat va institutsional choralarni ham o'z ichiga oladi. Davlat organlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, elektron hukumat tizimlarini rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, maxsus vakolatli organlar faoliyati, xodimlarning daromadlarini deklaratsiya qilish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish kabi chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda muhim o'rin tutadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- Qonuniylik;
- Fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- Ochiqlik va shaffoflik;
- Tizimlilik;
- Davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- Javobgarlikning muqarrarligi.

Har qanday faoliyatning samaradorligi, uning aniq prinsiplarga tayangan holda amalga oshirilishiga bog'liq. Shubhasiz, bu qoida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning samaradorligiga ham taaluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-mart kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashining yig'ilishidagi nutqida belgilangan vazifalar, g'oyalar va tashabbuslar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish vaqtinchalik emas, balki uzluksiz, izchil va maqsadli sa'y-harakatga aylanganini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yig'ilishda o'tgan yillar davomida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlarga baho berilib, kelgusidagi ustuvor vazifalar va asosiy yo'nalishlar belgilandi.

So'nggi yillarda yurtimizda olib borilgan islohotlar natijasida davlat xaridlari, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi muhim sohalarga raqamlashtirish ishlari joriy etildi.

Sohaga oid 10 ga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ta farmon va qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori va 20 dan ortiq idoraviy hujjat qabul qilindi, shuningdek 2 ta davlat dasturi tasdiqlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, davlat xizmatida korrupsiyaning oldini olishga

qaratilgan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. Shuningdek “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish tizimi yaratildi.

Korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim va muhit yaratildi, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rni va ta’siri yanada ortdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yaxlit tizim yaratish va sohada nazoratni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi tuzildi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida mas’ul qo‘mitalar tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishga mas’ul maxsus vakolatli organ — O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2022-yildan e’tiboran mazkur agentlikning O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi har yilgi milliy ma’ruzasini parlamentda eshitish amaliyoti joriy etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

-O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

-O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

-O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

-O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

-O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘z vakolatlari doirasida: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolatlari doirasida: korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘z vakolatlari doirasida: aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘z vakolatlari doirasida: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi, normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va

shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'radi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o'z vakolatlari doirasida: jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq jinoyatlar, iqtisodiy va korrupsiya bilan bog'liq boshqa jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va surishtiruvni amalga oshiradi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo'llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o'tkazadi, jinoiy ta'qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ko'rish uchun tegishli davlat organlarini korrupsiyaga oid aniqlangan huquqbuzarliklar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qiladi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Qonun(2016-yil 24-noyabr);
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi(1994-yil 22-sentyabr);
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori, 28.03.2025 yildagi 711-V-son;
4. Lex.uz elektron bazasi.